

ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA DIASPORA DIPLOMATIYASINING AHAMIYATI

Narimanova Nilufar

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi

magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diaspora diplomatiyasining mazmun-mohiyati va bugungi xalqaro munosabatlardagi tutgan roli o'rganilgan. Shuningdek, davlat tashqi siyosatida diaspora diplomatiyasining muhim ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Diaspora, Diaspora diplomatiyasi, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, yumshoq kuch.

KIRISH

Diaspora diplomatiyasi rivojlanib borayotgan tadqiqot sohasi bo'lib, inson, kapital va axborot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning tezlik bilan ortib borishi natijasida dunyo qiyofasining yangidan shakllanayotganligiga yorqin dalildir. So'nggi yillarda dunyo bo'ylab bir qancha davlatlar diasporalarida o'z ta'sirlarini oshirish va ular bilan muntazam muloqotni yo'lga qo'yish maqsadida turli chora-tadbirlar ishlab chiqishdi, hatto chet eldagi diasporalar bilan shug'ullanuvchi alohida davlat idoralari tashkil etildi. Shu nuqtai nazardan, diaspora diplomatiyasini chuqur o'rganish va tashqi siyosiy faoliyatda qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metod: Maqolani yozishda PESC tahliliy uslubidan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Diaspora – (yunoncha so'z bo'lib, "tarqalish", "yoyilish") o'z mamlakati bilan ma'lum darajadagi aloqalarni saqlab qolgan muhojirlar jamoalarini ifodalaydi. So'nggi davrda immigratsiyaning katta to'lqinlari va qochqinlar masalasining ichki siyosat va xalqaro munosabatlarda jadal o'zgarishlarga sabab bo'layotganligi siyosatchilar va olimlar orasida diasporalarning o'rni va roliga qiziqish uyg'otdi. Bu qiziqishlar diasporalarga oid strategiyalar, dasturlar ishlab chiqishga, keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Bir qator tadqiqotchilar diasporalar bilan bog'liq jarayonlar va aktorlarni tavsiflash uchun juda ko'plab atamalardan foydalanishadi. Misol uchun, jarayonning ishtirokchi davlatlari "mezbon davlat", "qabul qiluvchi davlat", "jo'natuvchi davlat" kabi atamalar bilan ifodalaniladi. Biror bir davlatning o'z diasporalari bilan olib boradigan aloqalariga esa "davlat-diaspora munosabatlari", "diaspora siyosati", "diaspora diplomatiyasi" atamalari orqali turlicha izoh berishadi.³ Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan diasporalarga shunday ta'rif beriladi: "Diasporalar – bu o'zga davlatga ko'chib borgan muxojir jamoalari." Atamaning mazmunini yanada aniqroq va kengroq yoritish uchun

³ Galiba E. Theorising Diaspora Diplomacy // Routledge International Handbook Of Diaspora Diplomacy. -New York: Routledge Taylor & Feancis Group, 2022. – 380 p.

quyidagicha ta'riflash mumkin: Diaspora o'z mamlakati bilan aloqalarini, shuningdek o'z milliyligini saqlab qolgan muxojirlar jamoasidir.

“Diaspora” tushunchasi insoniyat tarixidagi kommunikatsiya jarayonining muhim bir bo'lagi bo'lib, hozirgi davr uchun mutlaqo yangilik emas. Misol uchun, Qadimgi Rimda xizmat davri tugagan harbiylar uyga qaytish o'rniga bosib olingan hududlarda yashab qolishga da'vat etilgan.⁴ Bunday xatti-harakat sobiq urush qatnashchilari sabab bo'lishi mumkin bo'lgan siyosiy beqarorliklar oldini olish bilan birgalikda, Rim madaniyatining keng yoyilishiga, shuningdek, begona hududlarda Buyuk Imperiyaning kichik timsollari shakllanishiga sabab bo'lgan. Koloniyalar nomini olgan bu timsollarda vaqt o'tib hozirgi Belgrad, Kyoln, Budapesht kabi Yevropaning katta shaharlari shakllana boshlagan. Xuddi shunday holatning hozirgi kundagi ekvivalentini hukumatlar tomonidan boshqa davlatlarda yashovchi fuqarolarini siyosiy jarayonlarda o'z mamlakati manfaatlarini ifoda etishga undashida kuzatish mumkin. Ammo diasporalar bilan aloqalarga davlatning bevosita ishtiroki orqali rasmiy tus berish XX asr oxirlaridagina yuzaga kela boshladi. 1980-yillardan boshlab turli akademiya va ilmiy markazlarda paydo bo'la boshlagan diasporalar bo'yicha tadqiqotlar sohaga bo'lgan qiziqish yanada ortib borayotganining dalili edi. 1990- yillardan boshlab diaspora siyosatini amaliyotga konvertatsiya qilish boshlandi.⁵ (Xususan, chet elda yashovchi aholi soni bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadigan Hindistonda ham diasporalarga qiziqish aynan 1990-yillarning o'rtalarida sodir bo'la boshlagan.) Buning asosan quyidagi uchta sababi mavjud edi:

- Sovuq urush tugashi bilan globallashuv jarayonlarining jadallashuvi;
- Texnologiya va kommunikatsiya sohasidagi revolyutsiyaning insoniyat tamadduniga ulkan ta'siri;
- Inson kapitali asosiy rol o'ynaydigan yangi dunyo tartiboti haqidagi g'oya va konsepsiyalarning vujudga kelishi.

Diaspora diplomatiyasining ahamiyati

Insoniyat tarixida diasporalar va migratsiya xalqaro munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bir millat tarixini faqatgina milliy davlatchilik bilan cheklanishi asrlar davomida transmilliy aholining e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'lgan. Ko'plab mutaxassislarining fikriga ko'ra, chuqur o'ylangan siyosiy strategiyalar va katta urushlar dunyo shakllanishining asosiy omillari hisoblanadi. Holbuki, bular bilan bir qatorda uzoq asrlar mobaynida katta miqdordagi migratsiya dunyo qiyofasi shakllanishida alohida ta'sirga egadir. BMTning 2019- yildagi ma'lumotlariga⁶ ko'ra, dunyo aholisining 3.5%i yoki 273 millioni o'zi tug'ilgan vatanidan yiroqda yashaydi. Bu millionlagan insonlar oqimi nafaqat o'z vatani manfaatlarini, balki mezbon davlatlar manfaatlarini uchun ham juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

⁴ Elaine Lynn-Ee Ho, Fiona McConnell. *Diasporas and public diplomacy* // Routledge International Handbook Of Diaspora Diplomacy. -New York: Routledge Taylor & Feancis Group, 2022. – 9 p.

⁵ Kumari K. *Diaspora as soft power a case study of Indian diaspora in the US* / K. Kumari // - Gujarat, 2016-yil. - № 2- P. 168.

⁶ *International Migration: Report (2019)* / Department of Economic and Social Affairs, United Nations.. – New York, 2019. – 77 p.

Siyosiy ta'sir

Diaspora jamoalari mezbon mamlakatlarda o'z vatanlari manfaatlarini himoya qiluvchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunga yaqqol misol qilib Qo'shma Shtatlardagi yaxudiy, arman va hind diasporalarini keltirish mumkin. AQShda eng kuchli ta'sirga ega bo'lgan diaspora bu yahudiylardir. Yahudiylarning AQSh Kongressida, Oq Uyda, AQSh Demokratik partiyasida va umuman, AQSh davlat hokimiyatining oliy organlarida ko'plab vakillari bor. Shuningdek, AQShdagi aksariyat eng yirik OAV va medialar ham aynan yahudiy jamoasiga tegishli (NBS, CBS, CNN, New York Times, Washington Post, Paramount Pictures, Disney). AQShning Isroilga muntazam ravishda iqtisodiy va harbiy yordam berib kelishida amerikalik yaxudiylarning roli katta. So'nggi o'n yillikda Isroil aholi jon boshiga hisoblaganda AQShdan yordam oluvchi mamlakatlar orasida birinchi o'rinda turadi.⁷ Shuningdek, AQShda istiqomat qiluvchi arman jamolari Kavkazda Ozarbayjonga qarshi AQShning Armanistonni qo'llab-quvvatlashi uchun harakat qilib keladi. Hozirda 5.4 millionlik (AQSh aholisining 1,35%i)⁸ migrantlari bilan Amerikadagi ikkinchi eng yirik osiyoliklar jamoasiga aylangan hindlar ham o'z davlatlari foydasiga bir qator o'zgarishlarni amalga oshirishgan. Xususan, 1998-yilda Hindiston 11-13-may kunlari Poxranda yadroviy sinovlar o'tkazganida Yadroviy ta'minot guruhi (NSG) tomonidan unga katta sanksiyalar joriy etilgan edi. Hind jamoalari qo'yilgan sanksiyalarni bekor qilish uchun samarali tarzda harakat olib bordi. Hatto AQSH prezidenti Bill Klinton Hindistonga tashrifi paytida, hind lobbisining kuchli bosimi ostida sanksiyalarni bekor qilishga majbur bo'lganliklarini ta'kidlagan edi.

Iqtisodiy ta'sir

Xalqaro miqyosda ishchi kuchining ortib borishi bir vaqtning o'zida ham mezbon davlat uchun, ham jo'natuvchi davlat uchun foydali bo'lishi mumkin. Xususan, ish izlab yoki o'qish maqsadida migratsiya qiladigan aholining ko'pi yoshlardan iborat bo'lib, bu ishchi kuchi yetishmovchiligi mavjud bo'lgan rivojlangan mamlakatlar uchun katta imkoniyat taqdim etadi. Shuningdek, ishchi kuchining sezilarli darajada arzonlashuviga sabab bo'ladi. Ayni damda migrantlar oqimi tomonidan o'z davlatlariga yuborilgan pul jo'natmalari bir qator mamlakatlar YIMning katta qismini tashkil etadi. Misol uchun, 1990-yillar boshlarida Hindistonda siyosiy beqarorliklar, tashqi qarzning ko'pligi, tez suratlarda importning eksportdan oshib ketishi sababidan keskin iqtisodiy inqiroz ro'y berganida aynan chet ellardagi hindlar tomonidan o'z uylariga yuborilgan pul jo'natmalari mamlakat iqtisodiyotini asrab qolishda katta rol o'ynagan.

Ijtimoiy-madaniy ta'sir

Diaspora jamolari ko'chib borgan hududlarida o'zlarining madaniyati, tili, urf-odatlarini orqali keng jamoatchilik ongiga o'z mamlakatlarining milliy ruhini tanitishlari va ularga nisbagan ijobiy qarashlar shakllantirishlari mumkin. Bu esa o'z navbatida global miqyosda davlat imijini yuqori o'rinlarga olib chiqishda katta o'rin tutadi. Binobarin, chet ellardagi

⁷ US Foreign Assistance By Country / USAID. – 2024. – 11 noy.

⁸Number of overseas Indians in USA 2024, by type / Statista.com. – 2024. -11-noy.

hind diasporalari dunyodagi eng muvaffaqiyatli va malakali migrant jamoalari sifatida hurmat qozongan. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab Amerikadagi katta transmilliy kompaniyalarda hindlar yuqori lavozimlarni egallay boshlagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib Buyuk Britaniya, AQSh kabi davlat hukumatlarida, Microsoft, PepsiCo kabi yirik kompaniyalarda yetakchi lavozimlarda aynan hind millatiga mansub muvaffaqiyatli shaxslarni ko‘rish mumkin.⁹ Butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan hind diasporalari hind xalqi milliy ruhini tinchliksevarlilik, do‘stonalik, mojarolardan yiroqlik orqali Hindistonning xalqaro maydondagi tinchlikparvar imijini yanada mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shmoqda.

MUHOKAMA

Yuqorida ko‘rib chiqilganlardan ma‘lumki, diaspora diplomatiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Diaspora diplomatiyasining asosiy vazifalaridan biri mezbon mamlakat va asl kelib chiqqan mamlakat o‘rtasida o‘zaro manfaatli munosabatlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Binobarin, diaspora jamolari bir millat yoki davlatning Xalq diplomatiyasi va Yumshoq kuchining asosiy tayanchlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, diasporalar mohiyatini anglash samarali xalq diplomatiyasi ishlab chiqishda asosiy richag bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekistonda ham Diaspora diplomatiyasini shakllantirish quyidagi jarayonlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ishlab chiqilishi mumkin:

- Diasporalar bilan muntazam shug‘ullanadigan maxsus hukumat idorasini yoki uning bir bo‘limini tashkil etish (Hindiston Tashqi ishlar vazirligining Xorijdagi hindlar ishlari bo‘yicha bo‘limi yoki Irlandiyaning Global Irlandiya tashabbusi kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.);
- Chet eldagi diaspora jamolariga o‘z yurtlarida yashash, ishlash va sarmoya kiritish uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, xususan soliqlarni kamaytirish va patentlar taqdim etish orqali (Bu mamlakatga katta sarmoyalar bilan birgalikda xorij tajribasi va texnologiyalarining ham kirib kelishini ta‘minlaydi.);
- Diasporalarni jalb qilish va aloqalarni muntazam rivojlantirish maqsadida turli madaniy dastur va festivallar tashkillashtirish, universitetlar bilan hamkorlikda til kurslari joriy etish; film va turli madaniy ko‘rgazmalar taqdimotlarini yo‘lga qo‘yish (Online tadbirlar va platformalar shular jumlasidan.);
- Siyosiy ishtirokni ta‘minlash. Diaspora a‘zolariga mamlakatdagi siyosiy jarayonlarga ishtirok etishiga ruxsat berish siyosiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Chunki o‘z mamlakati ichki ishlariga qo‘shiladigan hissa vatanga oidlik hissini oshirib, chet elda o‘z vatani manfaatlarini himoya qilishga undaydi. Bu esa o‘z navbatida, siyosiy beqarorliklar avj olgan bir davrda zamonaviy davlatlarning xavfsizligi va jahon siyosatida tutgan o‘rnini kafolatlovchi omillardan biridir.

XULOSA

⁹ 10 People of Indian-Origin Who are World Famous // Times Of Indina. – 2024. – 10 noy.

Xulosa qilib aytganda, diasporalar davlatlarning xalqaro munosabatlardagi o‘rni oshirish borasidagi bir vosita bo‘lish bilan birgalikda, o‘zlarining haq-huquqlari va manfaatlarini ifoda etadigan alohida aktor sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, diasporalar ahamiyatini chuqur o‘rganish bugungi xalqaro maydondagi notinch va beqaror vaziyat fonida o‘z imijini ijobiy targ‘ib qilishga harakat qiladigan har qanday davlat uchun muhim yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, O‘zbekiston Tashqi siyosatida Diaspora diplomatiyasini samarali olib borish milliy manfaatlarni amalga oshirishda foydali qadam bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy nuqati nazardan, chet elda yashayotgan vatandoshlar investitsiya, texnologiya transferi va eksport uchun bozorlarni rivojlantirishga hissa qo‘shish imkoniyati katta. Bundan tashqari, boshqa rivojlangan mamlakatlardagi o‘zbekistonliklarning tajriba va bilimlarini mamlakat rivoji uchun jalb qilish intellektual salohiyatni oshiradi. Shuningdek, vatandoshlar orqali xalqaro hamjamiyat bilan ilm-fan, ta’lim va boshqa gumanitar sohalarida hamkorlikni kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galiba E. Theorising Diaspora Diplomacy Routledge // International Handbook Of Diaspora Diplomacy. -New York: Routledge Taylor & Feancis Group, 2022. – 380 p.
2. Elaine Lynn-Ee Ho, Fiona McConnell. Diasporas and public diplomacy // Routledge International Handbook Of Diaspora Diplomacy. -New York: Routledge Taylor & Feancis Group, 2022. – 9 p.
3. Kumari K. Diaspora as soft power a case study of Indian diaspora in the US / K. Kumari // - Gujarat, 2016-yil. - № 2- P. 168.
4. International Migration: Report (2019) / Department of Ecomomic and Social Affairs, United Nations.. – New York, 2019. – 77 p.
5. US Foreign Assistance By Country / USAID. – 2024. – 11 noy.
6. Number of overseas Indians in USA 2024, by type / Statista.com. – 2024. -11-noy.
7. 10 People of Indian-Origin Who are World Famous // Times Of Indina. – 2024. – 10 noy.